


## Payvanlash samaradorligini oshiruvchi flyuslar

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti xodimlari tomonidan sanoat va xo'jalik inshootlarini (yuqori bosimli quvurlar, ko'priklar, texnologik minoralar va boshq.) qurishda ishlatiladigan 4 mm. va undan ortiq qalinlikdagi konstruksion po'lat metallar va aralashmalarni ortiqcha xarajatsiz (ariq ochish, bir necha marta payvandlash) bir o'tishda sifatli payvandlash chokini hosil qilish uchun 12 turdagi faollashtiruvchi flyuslar ishlab chiqilgan.



Payvandlanayotgan metallga qarab maxsus flyuslardan foydalanish payvand chokining bir metr xarajatini 14 dan 20 AQSh dollarigacha va ularni ishlab chiqarish vaqtini 70% gacha kamaytirishga imkon beradi.

Texnologiya Yevropa Ittifoqida patentlangan.